



Received: January 2, 2026
Accepted: February 22, 2026
Available online: February 25, 2026

Madina Vahobova

Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

SHOH-U GADO OBRAZI: NAVOIY TALQINLARINING O'RGANILISHI XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodidagi shoh-u gado obrazi va uning badiiy-falsafiy mohiyati yoritilgan tadqiqotlarni tizimli o'rganishga bag'ishlangan. Dastlab Navoiy ijodida alohida konsepsiyani ifodalovchi shoh-u gado obrazining o'rganilishiga doir ilmiy kuzatishlar, tahlillar natijalari havola qilinadi, so'ngra masala bo'yicha muallif fikr-mulohazalari va xulosalari bayon etiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – shoh va gado obrazlarining Navoiy asarlari, xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida qanday konseptual badiiy tizim sifatida namoyon bo'lganini aniqlash hamda ularning tasavvufiy, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun Navoiyning shohlik, darveshlik, faqr va komil inson haqidagi qarashlari tahlil etilgan, masalaga oid ishlar tizimli o'rganilgan.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, Navoiy asarlarida shoh-u gado obrazlarining ramziy-majoziy xususiyatlarini aniqlash; ikkinchidan, ushbu obrazlarning g'oyaviy-badiiy mohiyatini tadqiq etish; uchinchidan, shoh-u gado konseptining Navoiy ijodida faqat ijtimoiy qarama-qarshilik ifodasi emas, balki ruhiy-axloqiy darajalar o'rtasidagi tafovut ifodasi ekanini ilmiy asoslash; to'rtinchidan, navoiyshunoslikda mazkur obrazlar talqiniga doir mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilishdir.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, germenevtik (talqin), konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, A.Qayumov, A.Abdug'afurov,

Madina Vahobova

PhD Student
Alisher Navoiy Tashkent State University of
the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: vahobovam.1996@gmail.com
ORCID iD: 0000-0002-2973-8696

THE IMAGE OF THE KING AND THE POOR: ON THE STUDY OF NAVOI'S INTERPRETATIONS

ABSTRACT

The article presents a systematic examination of scientific studies devoted to the king–dervish (shoh-u gado) motif and its artistic-philosophical significance in the works of Alisher Navoi. The study initially reviews existing academic interpretations of the motif as a distinctive conceptual element in Navoi's oeuvre and subsequently advances the author's analytical conclusions.

The primary objective of the research is to determine how the figures of the king and the dervish are represented as a unified conceptual and artistic system in Navoi's writings, particularly in the epic “Saddi Iskandariy”, and to elucidate their Sufi, ethical, and socio-philosophical meanings. In this context, Navoi's views on kingship, dervishhood, spiritual poverty (faqr), and the ideal human being are examined alongside a critical analysis of relevant scholarly literature.

The study pursues several key tasks: identifying the symbolic and metaphorical features of the king–dervish figures; analyzing their ideological and artistic functions; demonstrating that this motif reflects not merely a social dichotomy but a hierarchy of spiritual and moral development; and comparatively evaluating existing interpretations within Navoi studies.

Methodologically, the research employs comparative-historical, hermeneutic, and conceptual analysis. Works by scholars such as A.Qayumov, A.Abdugafurov, N.Komilov, I.Ismoilov, and N.Ramazonov are systematically considered, enabling a more comprehensive understanding of the motif.

N.Komilov, I.Ismoilov, N.Ramazonov kabi olimlarning masalaga daxldor tadqiqotlari tahlil etildi, shu yo'l bilan shoh-u gado obrazining Navoiy ijodidagi o'rni va badiiy vazifalari muayyan darajada aniqlashtirildi, mavjud qarashlar bo'yicha umumlashmalar qilindi.

Tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelinadi: Alisher Navoiy ijodida shoh-u gado obrazi ijtimoiy tabaqalanishdan ko'ra ko'proq inson ruhiy-axloqiy kamolotining turli bosqichlarini ifodalaydi. Haqiqiy shoh – darveshlik siyratiga yetishgan komil inson, haqiqiy gado esa dunyoning talabgori, Haqdan uzoqlashgan ma'naviy qashshoq kimsadir. Umuman olganda, shoh-u gado konsepti Alisher Navoiy ijodida insoniy kamolot, adolatli jamiyat va ilohiy haqiqatga yetish yo'lini ifodalovchi barqaror badiiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: shoh-u gado konsepti, sujet liniyasi, obraz, g'oya, shakl va mazmun, ramz, talqin, doston, radif, g'azal.

KIRISH

Farididdin Attor “Ikki olam asosi so‘z, suxandir” deydi, sababi u Haqdan mujda bo‘lib kelgan. Arshi a‘lodagi “Lavh ul-mahfuz”da bitilgan ham so‘zdir. Hamma narsa so‘zdan ijod etilgan va so‘zga qaytadi, deb yozadi [Attor, 2022; 63]. So‘zning badiiy qimmatini esa ramziy xususiyat, majoziy mohiyat va obrazli ifodada namoyon bo‘ladi. So‘z majoz ila go‘zal, obraz orqali ta’sirli va ramz bilan zavqli, chunki adabiyot ramzsiz, majozsiz va obrazsiz oddiy va jo‘n hodisaga aylanib qoladi. Chinakam so‘z san’atkorlari, jumladan, Alisher Navoiy asarlarining badiiy-estetik qimmatini ham mazkur jihatlar bilan o‘lchanadi. Alisher Navoiy ijodi mumtoz adabiyot taraqqiyotida badiiy tafakkur, falsafiy mushohada va tasavvufiy dunyoqarashning yuksak sintezini ifodalagan noyob hodisa. Navoiy asarlarida inson, jamiyat, adolat, hokimiyat va ilohiy haqiqat masalalari chuqur ramziy-obrazli tizim orqali talqin qilinadi. Ana shunday badiiy-falsafiy konsepsiyalardan biri “shoh-u gado” tizimi bo‘lib, u Navoiy “Xamsa”sidagi barcha dostonlarda namoyon bo‘ladi, xususan, “Saddi Iskandariy”da markaziy o‘rinni egallaydi, g‘oyaviy tayanch vazifasini bajaradi.

Shu asosda mazkur tadqiqotning maqsadi – Alisher Navoiy asarlarida, ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonidagi shoh-u gado obrazining poetik, tasavvufiy va falsafiy mohiyatini aniqlash hamda uning komil inson va adolatli jamiyat haqidagi qarashlar bilan uzviy bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Navoiy ijodidagi shoh-u gado obrazi va uning badiiy-falsafiy mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tizimli ravishda o‘rganish;
- shoh va gado obrazining Navoiy asarlaridagi o‘rnini aniqlash;
- “Saddi Iskandariy” dostonida shoh-u gado konseptining g‘oyaviy-badiiy

The findings reveal that in Navoiy's oeuvre the king–dervish motif signifies primarily stages of spiritual perfection rather than social stratification. The true king is the spiritually perfected individual who embodies dervishhood, whereas the true beggar is one attached to worldly desires. Thus, this concept functions as a stable artistic-philosophical system expressing the ideals of human perfection, just governance, and divine truth.

Key words: king and the poor man concept, subject line, image, idea, form and content, symbol, interpretation, epic, radif, ghazal.

rolini tahlil qilish;

– tasavvuf, xususan, naqshbandiya tariqati bilan mazkur obrazlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish;

– shoh-u gado konsepti Navoiyning odil shoh va komil inson haqidagi g‘oyalari bilan uyg‘unligini ilmiy jihatdan asoslash.

Alisher Navoiy “Xamsa”ni yozishda salaflar ijodidagi shaklni tubdan o‘zgartirmadi, lekin dostonlar mohiyatida serqatlam ma’nomlarni aks ettira oldi, obrazlar orqali yangi g‘oyalarni ifoda etdi. Xamsachilik talablariga amal qilgan holda o‘z dostonlarida an’anaviy mavzularga qo‘l urdi. Maqsadi faqat o‘tmishdagi afsona va rivoyatlarni bayon qilish bo‘lmay, balki ular vositasida o‘z g‘oya va qarashlari, munosabatlarini namoyon etdi. “Hayrat ul-abror” dostonida an’anaviy obrazlar orqali yangi mohiyat ifoda etilsa, “Farhod va Shirin”da “ko‘ngil” timsoli orqali inson va uning qalbiga ko‘zgu tutiladi, “Layli va Majnun” qahramonlari vositasida ishq va uning darajalari talqin etiladi, “Sab’ayi sayyor”da raqamlar va ranglar ortiga ulkan ramziylik yashiriladi, “Saddi Iskandariy” dostoni zamiridagi shoh-u gado konsepsiyasi esa hayot falsafasini ochib beradi. Doston sujetida bu juft obraz muallif nazarda tutgan asosiy g‘oyani ochiqlashda muhim vazifa bajaradi.

Navoiyshunoslikda shoh va darvesh, shoh va faqir munosabati masalasi turli nuqtayi nazarlardan o‘rganilgan. A.Qayumov Navoiyning axloqiy-falsafiy qarashlarini tarixiy-biografik kontekstda yoritgan bo‘lsa, A.Abdug‘afurov Navoiy “Xamsa”sida odil shoh idealining shakllanishini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. N.Komilov “Xizr chashmasi” asarida shoh-u darvesh timsollari orqali insonning ma’naviy kamolot yo‘lini sharhlaydi. N.Ramazonov “Saddi Iskandariy”da faqr va faqirlik muammosi talqinini tadqiq etadi, I.Ismoilov esa dostonning genezisi va poetikasini qiyosiy-tarixiy metod asosida ochib bergan. Ushbu tadqiqotlar shoh-u gado obrazining alohida jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, Navoiy ushbu obrazlar vositasida yaxlit ijodiy konsepsiya ifoda etgani, uning ichki mantiqi va tizim sifatidagi vazifalari hali kompleks tadqiq etilgan emas.

Navoiyshunoslikdagi ayni holat mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi: shoh-u gado obrazi ko‘pincha alohida personaj yoki axloqiy-didaktik timsollar sifatida tahlil qilingan, biroq ularning Navoiy badiiy-falsafiy tafakkurida inson, jamiyat va ilohiy haqiqatlar bilan aloqador masalalarni aks ettiruvchi yaxlit konsepsiya ekani yetarlicha yoritilmagan.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodidagi shoh-u gado obrazlarining badiiy-falsafiy mohiyatini ochib berish maqsadida zamonaviy adabiyotshunoslikning zarur metodlaridan foydalanildi. Ishning nazariy-metodologik asosini badiiy matnni tizimli va konseptual yondashuv asosida tahlil qilish tamoyillari tashkil etadi. O‘rganish jarayonida, avvalo, matn bilan ishlash va filologik tahlil metodi qo‘llanildi. Navoiy asarlaridagi shoh va gado obrazlariga oid tadqiqotlar kontekstual jihatdan tahlil etildi, XV asr ijtimoiy-siyosiy muhitining Navoiy qarashlariga ta’siri hamda shoirning adolatli shoh haqidagi g‘oyalari tarixiy kontekstda baholandi.

Qiyosiy-tarixiy metod asosida Navoiy talqinlari o'zidan oldingi Sharq mumtoz adabiyotidagi an'anaviy qarashlar hamda tasavvufiy talqinlar bilan solishtirildi. Bu usul orqali shoirning an'anani davom ettirish va yangilashdagi individual yondashuvi ochib berishga harakat qilindi.

Tadqiqotda germeneytik (talqin) metod muhim o'rin tutdi. Ushbu metod yordamida shoh-u gado obrazining zohiriy va botiniy qatlamlari, tasavvufiy ma'nolari hamda komil inson konsepsiyasi bilan bog'liqligi izohlandi. ularning leksik-semantik, ramziy va poetik xususiyatlari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, konseptual tahlil metodi orqali shoh-u gado tushunchasining Navoiy ijodidagi semantik maydoni va badiiy-falsafiy tizim sifatidagi yaxlitligi asoslab berildi. Mazkur yondashuv obrazlar alohida personaj emas, balki shoirning butun ijodi bo'ylab izchil namoyon bo'luvchi konsept ekanini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan ham samarali foydalanildi. Mazkur metodlar majmuyi shoh-u gado konseptining Navoiy ijodidagi o'rni, badiiy vazifasi va tasavvufiy mohiyatini kompleks ravishda yoritish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Alisher Navoiy asarlarini o'rganish nafaqat o'zbek adabiyotshunosligining, balki jahon sharqshunosligining ham muhim yo'nalishlaridan biridir. Navoiy ijodi yuksak badiiyati, teran falsafiy mazmun-mohiyati va umuminsoniy g'oyalari bilan ilmiy tadqiqotlar markazida turadi. Navoiy asarlari asrlar davomida nafaqat mutolaa qilinib, balki chuqur ilmiy-mushohada asosida tahlil etib kelinmoqda. Mashhur rus sharqshunosi, akademik N.Konrad ham Navoiy siymosiga yuksak baho berib, dunyoda Alisher Navoiydek shoir borligi quvonishga arzigulik hodisa ekanini ta'kidlaydi. U Navoiyni nafaqat o'rganish, balki uning asarlarini qo'ldan qo'ymasdan o'qish va mushohada qilish lozimligini qayd etadi. N.Konrad Navoiy ijodini bir Uyg'onish davridan boshqa bir Uyg'onish davriga yetib kelgan ulkan tarixiy hodisa sifatida baholaydi. Shu ma'noda, Navoiy asarlarining o'rganilishi ilm-ma'rifatni targ'ib etish, adabiy-estetik didni tarbiyalash, axloqni mukammallashtirish hamda ko'ngil sofligiga erishishga yordam beradi, mazkur jarayonni tezlashtiradi. Adib merosi milliy ma'naviyatimiz, tafakkurimiz va madaniyatimiz xazinasining ajralmas qismi bo'lib, bugungi kunda ham Navoiy asarlari adabiyotshunoslik, tilshunoslik va falsafa nuqtayi nazaridan keng ko'lamda tadqiq etilmoqda.

O'zbek navoiyshunosligida esa Navoiy ijodini maxsus o'rganish yo'lida Abdurauf Fitrat, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Sadridin Ayniy, Abduqodir Hayitmetov, Izzat Sulton, Porsoxon Shamsiyev, Vohid Zohidov, Najmiddin Komilov, Abdurasul Abdug'afurov, Aziz Qayumov, Natan Mallayev, Suyima G'aniyeva, Muslihiddin Muhiddinov, Alibek Rustamov, Shuhrat Sirojiddinov kabi navoiyshunos olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, A.Qayumovning "Nodir sahifalar", "Saddi Iskandariy", A.Abdug'afurovning "Buyuk beshlik saboqlari", N.Komilovning "Xizr chashmasi", N.Ramazonovning "Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir

obrazi”, I. Ismoilovning “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili”, “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi” kabi tadqiqotlari aynan shoh-u gado obrazi bo‘yicha ishimiz uchun nazariy-metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Akademik A. Qayumov “Nodir sahifalar” monografiyasida Navoiy bolaligidan shoh-u darvesh hikmatiga oshno tutinganini tasdiqlovchi bir lavhani keltiradi:

“Navoiyning oila a‘zolari va yaqinlari to‘g‘risida shoirning “Nasoyim ul-muhabbat” kitobida birmuncha qiziqarli ma‘lumotlar uchraydi. Xususan, Navoiyning otasi to‘g‘risida keltirilgan bir lavha diqqatga sazovordir. Navoiy o‘z otasi to‘g‘risida bunday yozadi: Bu faqirning otasining fuqaro ahliga ko‘p irodad va ixlosi bor edi”. Otasining bu xislatini Navoiy Bobo Ko‘kiy to‘g‘risidagi maqolada zikr qiladi. Podshoh farmoniga ko‘ra, Navoiyning otasi Astrobod viloyatiga bormoqda edi. Yo‘lda unga bir majnunsifat majzub uchraydi. Irodad ahli qoidasiga binoan Navoiyning otasi darveshga bir diram sadaqa uzatadi. Darvesh sadaqani olmaydi, ustingdagi kurta jubbani bergin, deydi. Havo sovuq edi. Navoiyning otasi otni surib o‘z yo‘lida davom etadi. To‘xtov joyiga kelganda yana haligi majzub yigit kelib, Navoiyning atasidan o‘sha kurta jubbani so‘raydi. Oradan bir necha kun o‘tgach, Navoiyning otasi Astrobodga yetib keladi va bu yerda bir yalang‘och darvesh unga uchraydi. Navoiyning otasi ustidagi kurta jubbani yechib o‘sha darveshga kiygizadi. Bir lahza o‘tgach, yo‘lda uchragan majzub yigit kelib Navoiyning atasiga qarab, kurta jubbani oldim, deydi.

Demak, yalang‘och bo‘lib kelib jubbani olgan darvesh o‘sha yo‘lda uchragan majzub yigit ekan. Navoiyning otasi Astrobodda ancha fursat bo‘lgan. Bu yerda hirotlik majzub darvesh Bobo Ko‘kiyning ovozi yoyilgan edi. Navoiyning otasi Astroboddan Hirotga qaytgach, bilganki, unga yo‘lda duch kelgan va, nihoyat, kurta jubbani olgan darvesh Bobo Ko‘kiy ekan. Bu voqeani Navoiyga otasining o‘zi aytib bergan” [Qayumov, 1991; 9].

Ana shu kichik lavha Navoiyning otasi to‘g‘risidagi tasavvurimizni to‘ldirishi bilan birga shoirning tafakkuri, dunyoqarashi bolaligidan boshlab atasidan eshitgan ibratlar va tasavvufiy kechinmalar ta‘sirida shakllanganiga dalil bo‘la oladi. Navoiyning keyinchalik shoh va darvesh obrazlarini gavdalantirishida, ularning obraz sifatidagi mavqeyini belgilashda bolaligida tinglagan shu kabi voqealarning ham muayyan ahamiyati bo‘lgan, albatta.

MUNOZARA

Navoiyshunos A. Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari” kitobida Navoiy ijodi talqini xuddi shu masaladan boshlanadi [Abdug‘afurov, 1995; 5]. Tadqiqotda Navoiyning orzusidagi “Odil shoh” obrazi turli pand-nasihatlar, rivoyatlar, hikoyatlar kontekstida tahlilga tortiladi. Odil shohning qanday fazilatga ega bo‘lishi, unga qo‘yilgan talab, so‘ng komil valiahd g‘oyasi ham e‘tiborga olinadi. Navoiy talqinida shohning odilligi mamlakatning obodonligi va xalqning farovon hayoti bilan belgilanadi. “Mulki obod, xalqi g‘aniy” bo‘lsa, bunday hukmdorni odil deyish mumkin, yo‘qsa u zolim va johildir. Odil shoh – “mulk va raiyat g‘ami” bilan yashashi,

ularning intilishi, orzu-istaklariga quloq tutishi va xalqi manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Odil shohlik ham, odamiylik ham ana shu talablarga qanchalik javob bera olish bilan o'ldhanadi. Navoiy ta'бири bilan aytganda, oriflik va fozillik adolat va odillikning muhim bir belgisidir.

A.Abdug'afurov kitobning "She'riy hikoyat va masallar tahlili" [Abdug'afurov, 1995; 54] qismida ta'kidlashicha, Navoiy "Xamsa"sidagi ayrim hikoyatlar sayyor sujetlar asosida yaratilgan bo'lib, "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Shoh va gado" hikoyati ham shular jumlasidan hisoblanadi. Unda o'rta asrlarda Sharqda, keyinchalik G'arbda ham mashhur bo'lgan voqea tasvirlanadi. Mazkur falsafiy-ijtimoiy xarakterdagi hikoyatda jahongir Iskandarning shohlikdan gadolikni afzal bilgan bir shaxs bilan muloqoti bayon etiladi. Olimning fikricha, hikoyatda ilgari surilgan asosiy g'oya — shoh-u gadoning barobarligi, aniqrog'i, ularning teng bo'lishi shartligi haqidagi progressiv tezisdir.

Hikoyat voqealariga ko'ra, Iskandar zabt etgan yurtlaridan birida halok bo'lgan hukmdor o'rniga munosib shaxs tayinlash niyatida nomzod izlaydi. U jamiyat tashvishlaridan chekinib, uzlatda yashayotgan bir donishmand haqida eshitib, uni huzuriga keltirishlarini buyuradi. Donishmand Iskandar huzuriga ikki suyak ko'tarib keladi. Shoh buning sababini so'rganida, donishmand go'ristondan o'tayotib bu suyaklarga nazar tashlagani, ammo qay biri shohniki, qay biri gadoniki ekanini ajrata olmaganini bildiradi. Modomiki, ikkisi ham o'limdan keyin barobar bo'lsa, tiriklikda nega ular o'rtasida nizo va tafovut bo'lishi kerak, degan savol o'rta tashlanadi:

*"Dedi: "go'rlardin qilurda guzar,
Necha bu so'ngaklarga soldim nazar.
Zamirimga lekin nihon qoldi bu
Ki, shahning qayudur, gadoning qayu?
Chu o'lganda birdur bu ikki mato,
Tiriklikda ne uchun qilurlar nizo?"* [Navoiy, 2013; 93].

Tadqiqotchi bu masalani asrlar davomida xalqlarning ilg'or farzandlarini o'yantirib kelgan dolzarb ijtimoiy muammo sifatida baholaydi. Hikoyatda donishmand Iskandarning bajara olmaydigan bir qator shartlarini qo'yib, shohlikni qabul qilmaydi va shu orqali o'zining jahongirdan ma'naviy jihatdan ustunligini namoyon etadi.

Bosh g'oyani chuqurroq ochish, asosiy maqsadni o'quvchiga yorqinroq namoyish etish niyatida yuqoridagidek yirik badiiy asarlarda bu kabi ibratli hikoyat va masallar, turli hayotiy tamsillar keltirish tajribasi Sharq xalqlari adabiyotida ko'p uchraydi. Olimning bu boradagi qarashlariga to'la qo'shilish mumkin. Bunday tajribaning ajoyib namunasi biz Alisher Navoiy ijodi, xususan, "Saddi Iskandariy" dostonida kelgan yuqoridagi hikoyat misolida kuzatdik.

Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi shoh-u gado obrazi to'g'risidagi salmoqli tahlillardan yana biri N.Komilovning "Xizr chashmasi" kitobida uchraydi. Olim Navoiy ijodini Xizr chashmasi misoli bir obihayotga qiyos etadi, undan ichgan sari qalblar tozarib, poklanib boradi, inson ma'nan va ruhan ulg'ayib, odamiylik hosil qiladi, deyiladi. Olim Navoiy e'tiqodining javhari – tasavvuf g'oyalari va inson qalbi,

shoh-u darvesh hikmati, inson ma'naviy kamoloti, ko'ngil va g'ayb olami, axloqiy poklanish va ilohiy ishq sirlari, faqr – komil inson sifati singari mavzular ostida Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari, adabiy niyati to'g'risida batafsil mulohazalar bildiriladi. Navoiy ijodining bugungi hayotimizga ta'siri haqida so'zlaydi [Komilov, 2005].

Navoiyning “*Neki olami kubroda bor – olami sug'roda bor*” degan fikri orqali inson, avvalo, o'zini anglab, so'ng Alloh yaratgan ilm-u hikmatni bilib, so'ng Yaratganni tanib komillik darajasiga ko'tarilishi mumkinligi tushuntiriladi. Komil inson siyrati, bu yo'lga kirgan solikning ishq va shavqi, dard-iztiroblari Alisher Navoiy asarlarida turli timsollar, obrazlar orqali ochib beriladi. Olim ana shunday obrazlardan biri bo'lgan shoh-u gado borasida so'z ochib, Navoiyning hazrati Bahouddin Naqshband “*bandalik xojalikka to'g'ri kelmaydi*” [Komilov, 2005; 21] deb dastyor va xizmatkor tutmagani, iloji boricha hammaga barobar bo'lgani borasidagi haqiqatlarni “Hayrat ul-abror” dostonidagi ushbu bayt tahlili asnosida sharhlaydi:

*Haq so'zini elga qilurda ado,
Teng ko'runub ollida shoh-u gado* [Komilov, 2005; 22].

Asarda xuddi shu baytdan oldingi bayt ham biz o'rganayotgan ilmiy muammoga bevosita daxldor, sababi Navoiyning – lutf chog'i shohga tojbaxsh bo'ldi, dema, u aslida gadolarga tojbaxsh bo'lgandir, deya keltirgan misralari, birinchidan, ulug' murshidning, ikinchidan, shoirning shoh-u gado darajalari, ular o'rtasidagi tafovutga oid mezonlarini aniq belgilab olish imkonini beradi:

*Shahg'a dema, lutf chog'i tojbaxsh,
Balki gadolarg'a dog'i tojbaxsh* [Navoiy, 2013; 84].

N.Komilov fikricha, shoh-u gado obrazi ifodalagan mazmun Navoiyning odil shoh to'g'risidagi orzusi namoyon bo'lishiga ham yordam bergan. Adolatning ibodatdan ustunligi, kofir odil podsho, musulmon zolim podshodan afzalligi, odillik – bu yaxshiga, mazlumga hamiyat, himoya, yomonga jabr ekani, shoh bog'bon, raiyat bog', shoh cho'pon, raiyat esa qo'ylar galasi ekani ta'kidlanadi. Shoh har bir fuqoro hayoti uchun Haq oldida javobgarligi, shuning uchun shoh Haqdan qo'rqmasa, odil bo'la olmasligi, o'lim haqida o'ylamagan podsho zolim bo'lishi, xalqni rozi qilmoq – Haqni rozi qilmoq bilan barobar kabi fikrlar adolat haqidagi talqinlar tizimini shakllantirgan. Olim mazkur fikr-mulohazalari isboti uchun No'shiravoni odil to'g'risidagi hikoyat, Husayn Boyqaro va mazlum kampir hikoyalarni [Komilov, 2005; 22] misol tariqasida keltiradi. Ularda ham adolat bosh masala ekanini qayd etadi.

“Farhod va Shirin” dostonida Xusrav va Farhod munozarasi orqali shoh-u gado ishq ichra barobar ekani ta'kidlanadi. Toj-u taxtdan voz kechib ishqni tanlagan Farhod Xusrav savollariga hayratlanarli javoblar berib uni mot qiladi:

*“Dedikim: Shahg'a bo'lma shirkatandesh!
Dedi: ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!”* [Navoiy, 2013a; 595]

Xusrav har tomonlama Farhodan yengiladi. Navoiy talqinida odil shoh nafaqat darveshlik siyratiga ega bo'lishi kerak, balki har bir inson ham komillik va chin insonlik kasb etishi uchun darveshvash bo'lishi lozim. Bunday qarash esa naqshbandiya tariqatining asoslariga borib taqaladi.

Masalan, birgina shoh emas, balki shoirda ham darveshlik xislati bo'lmasa, uning istedodi ulug' maqsadga xizmat qilmaydi, shu uchun bo'lsa kerak Navoiy shoirlilik va darveshlik iste'dodini mujassam etgan kishilarning ko'pini "Majolis un-nafois" asarida [Navoiy. Majolis un-nafois, 2013; 289] *darveshvash* deya ulug'laydi. Qisqasi, odil shoh bo'lmoq uchun gadoning holini o'z vujudiga sig'dira olmoq kerak. Navoiyning talqinicha, odil shohga hukmdorlik suvrati va darveshlik siyrati juda zarur. Shunday ekan, xo'sh, darvesh o'zi kim, degan savol tug'iladi.

N.Komilov "Shoh va darvesh hikmati" [Komilov, 2005; 99] bobida darvesh va shoh obrazlari mohiyatini sharhlar ekan, *darveshni barcha dunyoviy bog'liqliklardan xoli, qalbi va tafakkuri faqat Iloh bilan band bo'lgan ruhiy ozod kishi* sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, faqat ana shunday ichki erkinlikka ega insongina oliy haqiqat yo'lida murossasiz kurash olib bora oladi, mol-dunyo, mansab va martaba ortidan quvgan kishi esa muqarrar ravishda hokimiyat va mansabga qaram bo'lib qoladi hamda o'z irodasi bilan mustaqil ish yurita olmaydi. Shu nuqtayi nazardan tasavvuf ahli talqinida shoh tashqi qudrat timsoli bo'lsa-da, botiniy jihatdan dunyo quli sifatida baholanadi. Chunki, uning tafakkuri va faoliyati saltanatni kengaytirish, mol-dunyo orttirish bilan band. Shu mantiqqa ko'ra N.Komilov shoh obrazini dunyodan to'yaslik, zulm va zo'ravonlik ramzi sifatida baholaydi, darveshni esa unga mutlaqo qarama-qarshi holda saltanat, toj-u taxtni inkor etuvchi, ularga nafrat bilan qarovchi ma'naviy poklik timsoli sifatida izohlaydi.

Mazkur konsepsiya Navoiy ijodida ham teran badiiy-falsafiy mazmunga ega. Xususan, "Lison ut-tayr", "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarda shoh va darvesh obrazlari orqali dunyoviy saltanat bilan ko'ngil saltanati o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Navoiy talqinida haqiqiy qudrat dunyoviy hukmronlikda emas, balki nafsni zabt etish va adolatni qaror toptirishdadir. Shu bois Navoiy ideal hukmdor obrazini yaratishda uni darveshona sifatlar – adolat, tavoze', Haq oldida mas'uliyat tuyg'usi kabilar bilan boyitadi. Aytish mumkinki, Navoiy talqinida shoh va darvesh mutlaq begona qutblar emas, balki komillikka nisbatan ikki xil ruhiy maqom sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, "Hayrat ul-abror" dostonida adolatli shoh g'oyasi ilgari surilar ekan, hukmdor darveshona qalb sohibi bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Bu esa N.Komilov ta'kidlagan tasavvufiy qarash bilan ma'lum darajada uyg'unlashadi: agar shoh dunyoga qul bo'lsa – u zulm timsoli, agar nafsini yengib, qalbini poklasa – u haqiqiy saltanat sohibiga aylanadi. Shu jihatdan Navoiy ijodida shoh-u gado (yoki shoh-darvesh) konsepti keskin oppozitsiya ifodasidan ko'ra ko'proq dialektik birlik, aloqadorlik asosida talqin qilinadi.

N.Komilov darveshni umumlashma obraz, ezgulikning timsoli deb hisoblar ekan, bundan karomatli ulug' shayxlar-u qalbi sof qalandarlarini ham, miskin mo'minlarni ham, ijodkor adiblarni ham ko'rish mumkinligi oydinlashadi. Darveshlar

Haqni tanigan, ilmga tashna, xoksor, o‘zini faqir-u haqir hisoblaydi, ular oshiq, Iloh yodida dardmand, dili ogoh. Olim ushbu belgilarni bir-bir sanab, bu sifatlar Husayn Boyqaroda mujassam bo‘lganini yozadi:

*“Ham qiblayi iqbol harimi johi,
Ham Ka‘baya omol biyik dargohi,
Shohlarning dardmandi-yu ogohi,
Bu turfaki dardmandlarning shohi”* [Komilov, 2005; 115].

Ya‘ni, shoh taxtining atrofi – iqbol qiblasi, uning buyuk dargohi – orzu-armonlar ka‘basi, o‘zi shohlarning dili ogoh darveshi, ajibki, shohlarning dardmandigina emas, balki dardmandlarning shohidir.

Quyida “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “Har gadokim, bo‘riyoyi faqr erur kisvat anga” radifli g‘azalida ham aynan Husayn Boyqaro ta‘riflanadi:

*“Shohlar darveshi-yu darveshlar shohi, ki bor
Shohlik surat anga, darveshlik siyrat anga”* [Navoiy, 2013b; 29].

Bu g‘azal boshdan oxir shoh va darvesh munosabatining yaxlit bir bayonnomasi bo‘lib, Navoiy Husayn Boyqaroni tashqi ko‘rinishi shoh bo‘lgani bilan ichki olamiga ko‘ra darveshdir, deb e‘tirof etadi. Shu o‘rinda Najmiddin Komilov Husayn Boyqaroning bir g‘azalda “saltanatdan uncha faxrlanmayman, meni yor ko‘yining gadolari xaylidan hisoblasalar durust bo‘lardi”, degan fikrni o‘rinli keltiradi.

Aslini olganda, Husayn Boyqaro bu g‘azalda bir vosita bo‘lishi ham mumkin, sababi Navoiy shoh-u darveshni birlashtirish g‘oyasini ilgari suradi. Olim Navoiy tayinli kasb-u kori bo‘lmagan odamlar, ko‘cha-ko‘yda sang‘ib yurgan qalandarlar, soxta shayx-so‘fiylar, badnafs rindlarni yoqtirmagani, “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub”da qattiq tanqid qilganini aytib, haqiqiy darvesh obrazini farqlab ko‘rsatadi. “Majolis un-nafois” tazkirasida Davlatshoh Samarqandiy, Amir Mahmud Barlos, Xoja Mahmud, Mavlono Mas‘ud Mavlono Hoji, Mir Husayn Ali Jaloyir, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad kabi shahzodalar, olim-u shoirlar, hunarmandlarni darveshtabiat, yaxshi axloqli kishilar sifatida “ta‘bi darvesh-u, o‘zi shohnishon, qanoat kunjining poknishini, ilm-u zako ahlining yagonasi, faqr-u fano xaylining benishonasi” deya ta‘rif etadi. Navoiy o‘zining do‘stlari, shogirdlaridan ham shu fazilatlarga ega bo‘lishni talab qilgan.

Ayrim tadqiqotlarda tadqiq etilayotgan masalaning bir qismi o‘rganilgan. Masalan, M.Rajabov “Alisher Navoiy ijodida darvesh obrazi” [Rajabova, 2025] nomli maqolasida, asosan, darvesh obraziga e‘tibor qaratgan. Maqolada darvesh obrazi tasavvufiy, tarixiy va badiiy kontekstda tahlil qilinar ekan, mazkur talqin bevosita shoh-u gado konseptining nazariy asoslarini yoritishga xizmat qilishi qayd etiladi. Garchi maqolada “shoh-u gado” obrazlari asosiy masala sifatida qo‘yilmagan bo‘lsa-da, darvesh timsolining lug‘aviy, irfoniy va poetik talqini ushbu masalaning ma‘naviy-falsafiy ildizlarini ochib berishga xizmat qilgan.

“Darvesh” so‘zining genezisi va mazmuni vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarib borishi ko‘rsatilib, uning “tilanchi”, “gado”, “faqir”, “zohid”, “qalandar” kabi

ma'nolar bilan bog'liqligi asoslanadi. Bu muhim jihat, chunki mumtoz adabiyotda "gado" ko'pincha ijtimoiy qatlamni emas, balki tasavvufiy maqomni ifodalovchi timsol sifatida tasvirlanadi. Gado – moddiy muhtojlik emas, balki ma'naviy ixtiyoriy faqr timsoli sifatida talqin etiladi. Shu ma'noda darvesh va gado tushunchalari semantik jihatdan juda uyg'un bo'lib, shoh-u gado juftligining irfoniy mazmunini ochishga yordam beradi.

Maqolada Pahlavon Mahmud ruboiysi asosida shoh va darvesh qarama-qarshiligi talqin qilinadi. "Ulusga qayg'urur shoh emas, darvesh" misrasi orqali shoh – dunyoviy hokimiyat va davlat timsoli, darvesh esa – ruhiy poklik va ilohiy muhabbat timsoli sifatida ko'rsatiladi. Bu yerda shoh-u gado ziddiyati ijtimoiy tengsizlik masalasi sifatida emas, balki axloqiy mezon asosidagi qutblanish tarzida namoyon bo'ladi. "Buzuq devor" va "siniq ko'ngil" ramzlari orqali moddiy inqiroz va ma'naviy tanazzul o'rtasidagi farq ochiladi. Natijada darvesh jamiyatning ichki, ruhiy "me'mori" sifatida talqin qilinadi. Bu esa shoh-u gado konseptining ijtimoiy-falsafiy qatlami chuqur ekanligini tasdiqlaydi.

Ahmad Yassaviy hikmatlari tahlili esa darvesh timsolining komil inson darajasiga ko'tarilishini ko'rsatadi. Tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari orqali darvesh nafaqat dunyodan voz kechgan zohid, balki ilohiy haqiqatni anglagan "er" maqomiga yetgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu yerda gadolik ojizlik emas, balki ma'naviy qudrat ifodasidir. Shunday qilib, maqolada darvesh obrazi so'fiyona evolyutsiya jarayonida ko'rsatilib, shoh-u gado ziddiyati ontologik darajaga olib chiqiladi: biri zohiriy qudrat, ikkinchisi botiniy qudrat timsoli sifatida talqin etiladi.

Olima "Hargadokim, bo'ryoyi faqrerurkisvatanga..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azal tahliliga ham bugungi kun nuqtayi nazari bilan o'ziga xos yondashishga harakat qiladi. Albatta, bu g'azal shoh-u gado konsepsiyasining mukammal badiiy-falsafiy modelini namoyon etadi. G'azalda faqr haqiqiy boylik sifatida talqin qilinadi. Darveshning "bo'ryoyi faqr"i shohning "zarbaft xil'ati"dan ustun qo'yiladi. Bu esa qadriyatlar darajasining tubdan o'zgarishini, ya'ni moddiy saltanat emas, ma'naviy kamolot ustuvorligini anglatadi. Shoh lashkar tortadi, dunyoni zabt etishga urunadi, darvesh esa olamdan yuz o'giradi. Ammo shoir mubolag'a orqali haqiqiy qudrat darvesh tomonida ekanini ko'rsatadi: uning bir nafasi shoh hashamatini barbod qilishi mumkin. Zohiriy qudrat vaqtinchalik, botiniy qudrat esa abadiydir.

Maqolada alohida e'tibor qaratilgan jihat – Navoiy talqinidagi ideal shoh modelidir. Shoir ziddiyatni keskin qarama-qarshilik darajasida qoldirmaydi, balki uni sintezga olib keladi. Ideal shoh – zohiran hukmdor, botinan darvesh bo'lgan shaxs. Bu hol shoh-u gado konseptining eng yuqori falsafiy bosqichi bo'lib, unda ikki qutb bir shaxsda uyg'unlashadi. Husayn Boyqaro timsolida shunday model ilgari suriladi. Demak, Navoiy talqinida gado shohdan past emas, aksincha, shohlikning axloqiy-me'yoriy mezoni darveshlik bilan belgilanadi.

M.Rajabova maqolasida darvesh obrazi mustaqil tadqiq obyekti sifatida ko'rilgan bo'lsa-da, u shoh-u gado konseptining tasavvufiy, axloqiy va poetik asoslarini yaxshi ochib beradi. Muallif gadolichni ijtimoiy maqom emas, balki ruhiy erkinlik darajasi sifatida talqin qiladi. Bu esa shoh-u gado juftligini ijtimoiy keskin ziddiyat emas,

balki inson tabiatidagi ikki mayl – nafs va fano, saltanat va ma’rifat, zohir va botin o’rtasidagi dialektik birlik sifatida tushunishga imkon yaratadi. Shu jihatdan, darvesh talqini shoh-u gado obrazining konseptual negizi bo’lib xizmat qiladi va Navoiyning adolatli shoh haqidagi qarashlarini tasavvufiy mezon asosida talqin etishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Yuqorida qayd etganimizdek, shoh-u gado konsepsiyasi ko’pincha insoniy kamolot masalasi bilan bog’lanib ketadi. Shu bois komil inson masalasi tadqiqiga bag’ishlangan tadqiqotlar biz o’rganayotgan ilmiy muammo ham aks etadi. Jumladan, Shavkat Hayitovning “Alisher Navoiy nasrida komil inson obrazi” mavzusidagi dissertatsiyasining “Darveshlik – ma’rifat va hurlik maslagining barkamol inson qiyofasidagi ifodasi” nomli III bobida darveshlik maslagi tahlilga tortilgan [Hayitov, 2020; 166]. Olim darvesh obrazining mohiyatini “rizoandesh”, ya’ni Alloh rizosini ko’zlagan komil inson sifatida izohlaydi. Darvesh – nafsni yenggan, fano maqomiga yetgan, botinan hur va mustaqil shaxs. Bu jihat shoh-u gado obrazining ichki ma’no qatlamlarini ochadi. Dissertatsiyasida darveshlik maslagi ma’rifat va hurriyat g’oyasining barkamol inson qiyofasidagi ifodasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur bobdagi qarashlar Alisher Navoiy ijodidagi shoh-u gado konsepsiyasini chuqurroq anglashda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Olim tahlillarida ham darveshlik ijtimoiy pastlik emas, balki ruhiy yetuklik maqomi. Chunki Navoiy talqinida gado (darvesh) moddiy jihatdan faqir bo’lsa-da, ma’naviy jihatdan mustaqil va hur. Shoh esa zohiriy saltanat egasi bo’lsa-da, agar nafs asiriga aylansa, botinan qaram hisoblanadi. Bu esa shoh-u gado obrazidagi qadriyatlar almashuvini asoslaydi. Sh. Hayitov nafsni “eng katta ichki dushman” sifatida talqin qiladi. Rumiyl keltirgan Umar ibn Xattob haqidagi ramziy lavha orqali nafsqa qarshi kurash – haqiqiy qudrat mezoni ekani, insonning ichki dushmani tashqi dushmandan ham xavfli ekani ko’rsatiladi. Bu nuqta shoh-u gado konseptida muhim: shoh tashqi dushmanni yengadi, darvesh ichki dushmanni – nafsni yengadi. Darhaqiqat, Navoiy g’azallarida ham aynan shu mezon asosida haqiqiy qudrat darvesh tomonida ekani ko’rsatiladi.

Sh. Hayitov darveshlikni “hur hayot” sifatida talqin qiladi. Darvesh banda oldida egilmaydi, u faqat Allohga muhtoj, qalban erkin. Bu jihat ham shoh-u gado konseptining asosiy g’oyaviy o’qlaridan biri sanaladi. Navoiy talqinida gado shohga qaram emas, hatto, shohdan ma’naviy jihatdan ustun. Shoh moddiy jihatdan boshqaruvchi bo’lsa, darvesh ruhiy makon egasidir. Bu esa obrazlar o’rtasidagi oddiy emas, balki ontologik darajadagi ziddiyatni ham namoyon etadi.

Tadqiqotda Navoiy tomonidan riyokor shayxlarning fosh qilinishi ham alohida tahlil qilinadi. “Suvrat” va “siyrat” nomutasosibligi keskin tanqid qilinadi. Soxta darvesh va haqiqiy darvesh obrazlari orqali suvrat va siyrat muammosi o’rtaga chiqishi ta’kidlanadi. Bizningcha, bu masala shoh-u gado konseptiga ham bevosita taalluqli. Soxta darvesh – gadolik niqobidagi nafs bandasi bo’lsa, haqiqiy darvesh ichki poklik egasidir. Xuddi shundek zolim shoh – dunyoviy saltanat, odil shoh esa botiniy darveshlik bilan uyg’unlashgan obraz sifatida gavdalanadi. Demak, Navoiy talqinida muammo shohlik yoki gadolikning o’zida emas, balki zohir va botin

uyg'unligi, suvrat va siyrat mutanosibligi bilan ham bevosita aloqadordir.

Sh.Hayitov tahlillaridan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, Navoiy komil insonni – faqr, fano, tavoze, malomatiylik asosida talqin etadi. Bu esa shoh-u gado konsepsiyasi ifodasida sintezni yuzaga keltiradi. Ya'ni, odil hukmdor zohiran shoh, botinan darvesh. Shavkat Hayitovning qarashlariga ko'ra, darveshlik Navoiy ijodida ma'rifat yo'li, nafsni yengish maktabi va hurriyat mafkurasi, komil inson konsepsiyasining asosi sifatida talqin qilinadi. Ushbu talqin shoh-u gado obrazining tasavvufiy ildizlarini ochib berishda xizmat qiladi. Gado – ma'naviy komillik, shoh esa sinov timsoliga aylanadi. Navoiy ijodida haqiqiy ustunlik ijtimoiy maqom bilan emas, balki ruhiy daraja bilan belgilanadi. Shu bois Sh. Hayitov tahlillari shoh-u gado konseptini ijtimoiy emas, balki axloqiy-falsafiy va tasavvufiy kategoriya sifatida talqin qilish zaruratini ko'rsatadi.

Navoiy “Tarixi mulki ajam”da Sulton Husaynga bag'ishlangan masnaviy bitar ekan Sulton Husaynni “Insoni ayn”, darveshlikni kasb qilgan inson sifatida ta'riflaydi:

*Demay ayni insonki, insoni ayn –
Ham inson-u ham ayn Sulton Husayn.
Shoho, keldi shahliq musallam sanga,
Na shahliqki, darveshliq ham sanga.
Bo'lub saltanat taxtida faqrjo'y,
Shah o'lsa, vale bo'lsa darveshxo'y...* [Komilov, 2005; 120]

N.Komilov “Saddi Iskandariy” dostonini “Hikmat va ibrat dostoni” sifatida tadqiq etadi. Dostonda ifodalangan asosiy g'oyani jahonni zabt etgan Iskandar bir ojiz banda sifatida dunyodan hech narsa olib ketmagani tasvirida ko'radi. Shoh va darvesh suhbatlari orqali esa mumtoz adabiyotda inson hayoti va ma'naviy kamolotiga oid ko'plab falsafiy masalalar talqin etiladi. Bu qiyos, avvalo, foniylilik va boqiylik g'oyalarini ochib berishga xizmat qiladi: shoh dunyoviy qudrat va saltanat timsoli bo'lsa, darvesh ruhiy poklik va abadiy haqiqat sari intilishni ifodalaydi. Shu bilan birga, u jahonga egalik istagi va faqrlilik maslagi o'rtasidagi ziddiyatni ham ko'rsatadi. Shoh dunyo boyligi va hukmdorlik bilan bog'lansa, darvesh tasavvufiy faqrlilik – ya'ni dunyo ne'matlaridan voz kechib, Haqqa yaqinlashish yo'lini ifodalaydi.

Mazkur konsept shohlik va ogohlik, shohlik va xudovandlik kabi tushunchalar o'rtasidagi farqni ham yoritadi. Bunda insoniy saltanatning nisbiyligi, ilohiy qudrat oldidagi ojizlik masalasi ko'zga tashlanadi. Natijada inson qudrati va ojizligi, inson tabiati talabi hamda oliy maqsad talabi o'rtasidagi ziddiyatlar ham mazkur obrazlar orqali talqin etiladi.

Umuman olganda, N.Komilovning shoh va darvesh haqidagi nazariy mulohazalari Navoiy ijodidagi shoh-u gado obrazini tadqiq etishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tasavvufiy talqinda darvesh – ruhiy ozodlik, shoh esa dunyoga qaramlik ramzi sifatida talqin qilinsa-da, Navoiy badiiy tafakkurida bu ikki obraz komil inson g'oyasi doirasida uyg'unlashtiriladi. Bu esa shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari naqadar chuqur va ko'lamdor ekanini ko'rsatadi.

Navoiyning shoh-u gado obrazlariga oid qarashlari “Saddi Iskandariy” dostonida

ancha bo‘rtib turadi. Shu bois ushbu dostonga bag‘ishlangan tadqiqotlarda mazkur obrazlar ancha batafsil va chuqur tadqiq etilganiga guvoh bo‘lamiz. I. Ismoilovning “Saddi Iskandariy” dostoniga oid tadqiqotlarida shoh-u gado obrazi konsepsiyasi yaxshi ochib berilgan. Olim 2019-yilgi “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili” nomli dissertatsiyasida “Saddi Iskandariy” dostoni manbalari, asarlar debochasi, kompozitsiyasi, sujetdagi an‘anaviylik va o‘ziga xosliklar, ulardagi yetakchi obrazlarni qiyosiy tahlillar bilan tushuntiradi. Dissertatsiyaning “Saddi Iskandariy” va “Iskandarnoma” debochalarining asar umumiy mazmuni bilan uyg‘unligi” [Ismoilov, 2019; 38] faslida ta’kidlanishicha, Alisher Navoiyning “Xamsa”si uning g‘oyaviy-badiiy qarashlarini lirik merosiga nisbatan yanada mukammal va tizimli tarzda namoyon etadi. Ayniqsa, dostonlarning debochalari shoirning estetik ideali, ijtimoiy-falsafiy qarashlari va asarning bosh g‘oyasini mujassamlashtiruvchi muhim kompozitsion qism sifatida e’tiborga loyiqdir.

Tadqiqotda qayd etilishicha, Navoiy “Xamsa” tarkibidagi barcha dostonlarda debochani asar mazmuni va kompozitsiyasi bilan uzviy muvofiqlashtirish prinsipiga qat’iy amal qilgan. Mazkur tamoyil “Saddi Iskandariy” debochasi boblarining tuzilishi va sarlavhalarida ham izchil davom ettirilgan. Xususan, dostonning ilk baytlaridayoq shohlik va gadolik masalasining tilga olinishi asarning markaziy g‘oyaviy yo‘nalishiga ishora qiladi. Bu hol Navoiy ijodida shoh-u gado konseptining tasodifiy emas, balki muayyan falsafiy-estetik dastur asosida shakllanganini ko‘rsatadi.

Debochada seziladigan jangovar ruh, shoirning asarni yaratish arafasidagi ruhiy holati va maqsadga yo‘naltirilgan ichki safarbarlik kayfiyati keyingi voqealar rivoji bilan bevosita uyg‘unlashadi. Zero, “Saddi Iskandariy” nafaqat tarixiy-afsonaviy sujetga, balki adolatli shoh timsoli orqali jamiyatni ma’naviy isloh qilish g‘oyasi asosiga qurilgan asar. Ayniqsa, debocha boblarining tuzilishi va sarlavhalar tizimi kompozitsion yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ularda shoirning ilohiy madad so‘rashi, payg‘ambar va avliyolarni madh etishi, so‘z va ijod qudrati haqidagi mulohazalari bosqichma-bosqich asosiy g‘oyaga – adolatli va ma’rifatparvar hukmdor obrazini yaratishga olib keladi. Demak, debocha nafaqat an‘anaviy kirish qismi, balki asarning konseptual asosini belgilovchi nazariy-badiiy platforma vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, “Saddi Iskandariy” va “Iskandarnoma” debochalari asar umumiy mazmunining ixcham modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy debochada ilgari surgan shohlik va gadolik haqidagi fikrlarini doston davomida Iskandar siymosi orqali badiiy tasvirlaydi. Natijada shoh-u gado oppozitsiyasi tarixiy obraz talqinida falsafiy umumlashma darajasiga ko‘tarilib boradi. Bu esa Navoiyning kompozitsiya va g‘oyaviy izchillikni ta’minlashdagi mahoratini ko‘rsatadigan muhim poetik dalildir. Qisqa qilib aytganda, “Saddi Iskandariy” debochasi asar mazmuni bilan ichki uyg‘unlikda bo‘lib, unda ilgari surilgan g‘oyaviy yo‘nalish doston voqealari, obrazlar tizimi va konseptual yechimida mantiqan davom ettiriladi. Mazkur hol Navoiy “Xamsa”sida debocha kompozitsiyasining tasodifiy emas, balki chuqur o‘ylangan badiiy-strategik unsur ekanini tasdiqlaydi.

Ilyos Ismoilov Iskandar haqidagi dostonlarning fotiha baytlarini qiyosiy tahlil qilar ekan, Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” asari boshlanishidayoq shoh va gado

tushunchalarini yangicha badiiy-falsafiy mazmunda talqin etganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, Navoiy ilk baytdayoq dunyoviy hukmdorlik bilan ilohiy saltanatni qarama-qarshi qo'yish orqali an'anaviy muqaddima qolipiga konseptual yangilik olib kiradi. Bu qarama-qarshilik salaf dostonlarida bu darajada ochiq va tizimli shaklda kuzatilmaydi:

*“Xudoyo, musallam xudoliq sanga,
Birov shahki, da'bi gadoliq sanga”* [Navoiy, 2013d; 6].

I.Ismoilov mazkur baytda tavhid g'oyasi dunyoviy shohlik mohiyati bilan uzviy bog'lab talqin etilganini yozadi. Navoiy nazarida chinakam shohlik – mutlaq ehtiyojsizlik, ya'ni Haqqa to'la tayanish holati bo'lsa, har qanday ehtiyojmandlik gadolik maqomini anglatadi. Shu tariqa shoir birinchi baytning o'zidayoq asarining bosh falsafiy yo'nalishini belgilab beradi. Olim bu holni dostonning fano konsepsiyasi asosiga qurilganining dastlabki ishorasi sifatida baholaydi. Shuningdek, I.Ismoilov muqaddimaviy bayt har bir muallif tomonidan asar mavzusi va adabiy maqsadidan kelib chiqib muayyan tarzda o'zgartirib borilganini aniqlaydi. Bu an'ana Navoiy ijodida o'zining eng mukammal ko'rinishiga yetganini aytadi: shoir birgina bayt orqali asardan ko'zlangan bosh g'oyani aniq ifodalaydi va uni keyingi boblarda izchil ravishda rivojlantiradi. Demak, Navoiyning salaflariga nisbatan asosiy yangiligi ham muqaddimani konseptual dastur darajasiga ko'tara olganida namoyon bo'ladi. Mazkur xulosaning dissertatsiyada alohida ahamiyat bilan qayd etilishi bejiz emas. Chunki, u Navoiy ijodida uchraydigan shoh-u gado konseptining tasodifiy badiiy detal emas, balki yaxlit estetik-falsafiy tizim ekanini ham ko'rsatadi. Bu esa mazkur konseptni navoiyshunoslik doirasida mustaqil va kompleks yo'nalish sifatida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa ekanini tasdiqlaydi.

I.Ismoilovning “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezesi va poetikasi” deb nomlangan tadqiqotida Iskandar haqida asar yozish an'anasining paydo bo'lishidan tortib, Iskandar mavzusining Sharqdagi asoslari, Iskandar qissasining “Xamsa” yozish an'anasidagi transformatsiyasi hamda dostonning o'ziga xosligi qiyosiy-tarixiy metod asosida ochib beriladi. Ushbu dissertatsiyaning “Saddi Iskandariy” dostonida sujet va obrazlar takmili [Ismoilov, 2022; 138], deb nomlangan faslida shoh va gado masalasiga alohida e'tibor berilganini ko'rish mumkin. Dissertatsiyada “Iskandar va gado” hikoyati dostonni tushunishda juda muhim ahamiyat kasb etishi, u orqali Navoiyning o'z oldiga qo'ygan adabiy maqsadi, ideallari va bosh qahramonning ma'naviy qiyofasi aniq tasavvur etilishi yaxshi yoritilgan. Olimning “*Bu hikoyat “Saddi Iskandariy” dostonining ramziy kaliti*” [Ismoilov, 2022; 292], degan xulosasi Navoiy ijodida shoh-u gado konsepsiyasi ahamiyatining nechog'lik yuqori ekaniga yana bir dalil bo'la oladi.

N.Ramazonov tadqiqotida faqr xarakteriga mansub turli obrazlar atroflicha tahlil qilinib, ular orasida shoh va gado timsollarining ham o'ziga xos badiiy-falsafiy vazifa bajarishi alohida ta'kidlanadi. Olim “Saddi Iskandariy” dostonini faqir talqini nuqtayi nazaridan muhim asar sifatida baholab [Ramazonov, 2019; 154], unda shohlik masalasining aynan faqir obrazi bilan uzviy bog'liqlikda hal etilganini qayd etadi.

Uning fikricha, doston avvalida Iskandarning ichki ikkilanishi, xususan, shohlikni gadolik bilan almashtirgan darvesh bilan uchrashuvi uning ruhiy burilish nuqtasini tashkil etadi. Shuningdek, Iskandarning Arastudan asl maqsadga erishish yo'lida qaysi yo'l yaqinroq ekani haqida so'ragan savoliga ustoz tomonidan faqr yo'li deb javob berilishi qahramonning shohlikdan voz kechib, o'zini ma'naviy-irfoniy hayotga bag'ishlash qarorini mustahkamlaydi. Shu tariqa, faqr g'oyasi Iskandar ruhiyatida yetakchi ma'naviy mezon darajasiga ko'tariladi. Biroq N.Ramazonov ta'kidlaganidek, Navoiy bu jarayonda ideal hukmdor modelini ham badiiy usul orqali ilgari suradi. Ya'ni shohlik shaxsiy istak yoki mansabparastlik natijasi emas, balki xalq talabi asosida qabul qilinishi lozim bo'lgan mas'uliyat sifatida talqin etiladi. Natijada Iskandar shohlikni qabul qilishga majbur bo'ladi, ammo u faqr va shohlikni bir-biriga zid tushunchalar sifatida emas, balki uyg'un holda olib boradi. Hatto, uning talqinida faqirlik shohlikdan ustun ma'naviy maqom sifatida ko'rsatiladi. Shu asosda Navoiy tomonidan ham faqrni qadrllovchi, ham shohlik mas'uliyatini ado etuvchi ideal hukmdor obrazi yaratiladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida shoh va darvesh munosabati dramatik to'qnashuvlar, ruhiy kechinmalar, iztiroblar va shu kabi turli ruhiy holatlar fonida ochiladi. Ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shoh-u gado obrazi, ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida aniq tizimlashgan holda namoyon bo'lib, dostonning g'oyaviy-badiiy tayanch nuqtalaridan birini tashkil etadi. Dostonning ilk baytlaridanoq shohlik va gadolik tushunchalarining qarama-qarshi qo'yilishi Navoiy butun asarni shoh-u gado konsepsiyasi asosida yaratganini anglatadi. Shoh va gado obrazlari qiyosi orqali dunyoviy qudratning foniyligi, haqiqiy saltanat esa ma'naviy komillikda ekanligi asoslab beriladi.

Shoh-u gado obrazining o'rganilishida yuqoridagi barcha tadqiqotlar ham birdek ahamiyatga ega bo'lib, ushbu obrazlar ko'proq “Saddi Iskandariy” dostonida, shuningdek, boshqa asarlarda ham faol namoyon bo'ladi. Ular bir-biridan ajralmaydi, doim bir-birining mohiyatini ochuvchi, ba'zan uyg'unlashgan tizim sifatida mavjud bo'ladi.

XULOSA

Alisher Navoiy ijodida shoh-u gado obrazi chuqur falsaviy va tasavvufiy mazmunga ega bo'lib, bu Navoiyning inson, jamiyat va ilohiy haqiqat borasidagi qarashlarini umumlashtirish vazifasini bajaradi. Ya'ni shoh va gado ijtimoiy tabaqani ko'rsatishdan tashqari inson ruhiy kamolotining ikki darajasini ifodalab keladi. Shohlik – tashqi qudrat va hukmronlik timsoli bo'lsa, gadolik – ichki poklik, tavoze' va faqat Haqqa ehtiyojmandlik ramzidir. Shu bois haqiqiy shoh – nafsini yenggan, adolatni qaror toptirgan, xalq dardi bilan yashagan komil insondir. Aksincha, ma'naviy qashshoq hukmdor – zohiran shoh bo'lsa-da, botinan gadodir. Tasavvufiy talqinda esa gado – faqirlik maqomiga yetgan, Allohga muhabbat yo'lida o'zligini yo'q qilgan oshiq, shoh esa ilohiy visolga erishgan ruhiy yetuk shaxs timsolidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shoh-u gado obrazi Navoiyning faqat bir dostonida emas, balki “Xamsa”ning boshqa dostonlarida, devonlari tarkibidagi g'azallari, tarixiy

va nasriy asarlarida ham bevosita yoki bilvosita aks etgan. Bu esa mazkur obrazlar tasviri va talqini Alisher Navoiy ijodini to'liq qamrab olgan, barqaror va chuqur ildiz otgan badiiy-falsafiy tizim ekanini tasdiqlaydi. Navoiy ushbu konsepsiya orqali barcha asarlarida dunyo boyligi va mansabining o'tkinchiligini eslatadi. Shohlik vaqtinchalik, ammo komil inson bo'lish, odamiylikni ezgu qadriyat sifatida vashf etadi.

Shuningdek, Navoiy bu konsept orqali adolatli shoh idealini, adolatli jamiyat g'oyasini ilgari suradi. Shoh-u gado konsepti kamtarlik, poklik, saxovat, adolat va muhabbat kabi bir qancha insoniy fazilatlarini ulug'lashga ham xizmat qiladi. Navoiy talqinida odil shoh – faqat toj-u taxt egasi emas, darveshlik siyrati bilan yuksalgan komil inson. Shu bois shoh-u gado obrazi Navoiy ijodida bo'linmas, juft va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shoh gadoning holini anglamasa, ma'nan gado, gado esa faqrlik va ixlos yo'lida sobit bo'lsa, ma'nan shoh darajasida tasvirlanadi.

Shoh va darvesh – Alisher Navoiydan oldingi salafilar ijodida ham asosiy obyektlardan biri bo'lsa-da, Navoiy ushbu konsepsiyani davom ettirib, shoh va darvesh orasidagi tafovutni misollar yordamida ajoyib tarzda ko'rsatib berdi. Shoh-u gado Navoiy ijodida mustahkam bog'langan, juft obraz sifatida talqin etiladi. Navoiy siyratida darveshlik darajasiga yetgan shohni haqiqiy shoh deb biladi. U uchun shoh-u darvesh munosabati va bundan kelib chiqadigan xulosalar ahamiyatli bo'lgani deyarli hamma asarlarida bevosita yoki bilvosita ko'rinadi. Alisher Navoiy asarlari sujetida shoh va gado obrazlarining o'ziga xos muhim vazifasi bor. Bu vazifaning mohiyati muallifning insoniyatga aytmog'chi bo'lgan fikrlari ko'lami bilan o'lchanadi.

Ba'zan shoh va gado zid tushunchalar emas, balki bir obrazning ikki qirrasini sifatida talqin etiladi. Ushbu bo'linmaslik tasavvufiy qarashlarga ham borib taqaladi. Masalan, zohir va botin, dunyo va haqiqat, nafs va ruh bir insonda mujassam bo'ladi. Shohlik – dunyoviy qudrat, gadolik – botiniy faqrlik timsolidir. Shuning uchun Navoiy asarlarida ko'pincha shoh gadoga, gado shohga aylanadi, bu esa shoh-u gado konseptining alohida, o'ziga xos evrilish xususiyatini ham ko'rsatadi. Aytish mumkinki, Navoiy shunday xulosani ilgari suradi: inson bir vaqtning o'zida ham shoh, ham gadodir. U dunyoga shoh bo'lishi mumkin, ammo Haq oldida mutlaqo gado (muhtoj)dir. Shoh-u gado obrazi Navoiy ijodida qarama-qarshiliklar birligi tamoyiliga asoslangan bo'lib, ruhan va ma'nan yetuk, komil inson konsepsiyasini yoritishga xizmat qiladi.

Shoh-u gado obrazi Alisher Navoiy ijodida insoniy kamolot, adolatli jamiyat va ilohiy haqiqatga yetish yo'lini badiiy ifodalovchi universal konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur konsepsiyani kompleks va tizimli o'rganish navoiyshunoslikda muhim va dolzarb ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, A. (1998). *Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vaahdat ul-vujud problemi bo'yicha)*. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti.
2. Abdug'afurov, A. (1995). *Buyuk beshlik saboqlari: maqolalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Attor, F. (1994). *Ilohiynoma*. Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti.

4. Attor, F. (2006). *Mantiq ut-tayr*. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Attor, F. (2022). *Saylanma II: Ilohiynoma*. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti.
6. Hayitmetov, A. (1963). *Navoiyning ijodiy metodi masalalari*. Toshkent: Fan.
7. Hayitov, Sh. (2020). Alisher Navoiy nasrida komil inson obrazi (ulugʻ shoir manonqiblari asosida). *Filol. fan. dok. diss.* Fargʻona: Fargʻona davlat universiteti.
8. Ismoilov, I.A. (2019). Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
9. Ismoilov, I.A. (2022). Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezesi va poetikasi. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.
10. Jalolov, T. (1968). *“Xamsa” talqinlari*. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.
11. Joʻraqulov, U.H. (2017). Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
12. Komilov, N. (2005). *Xizr chashmasi*. Toshkent: Maʼnaviyat.
13. Komilov, N. (2021). *Istiqlol davri oʻzbek navoiyshunosligi: Xizr chashmasi* (30 j., 7-j.). Toshkent: Tamaddun.
14. Muhiddinov, M. (1995). Alisher Navoiy va uning salafarlari ijodida inson konsepsiyasi (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida). *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti.
15. Navoiy, A. (1960). *Xamsa* (P.Shamsiyev, nashr. tayyorl.). Toshkent: OʻzFA nashriyoti.
16. Navoiy, A. (2000). *Muhokamat ul-lugʻ atayn* (16-j.). Toshkent: Fan.
17. Navoiy, A. (2006). *Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan* (M.Hamidova, nashr. tayyorl.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
18. Navoiy, A. (2013). *Hayrat ul-abror* (10 j., 6-j.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
19. Navoiy, A. (2013). *Farhod va Shirin* (10 j., 6-j.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
20. Navoiy, A. (2013). *Layli va Majnun* (10 j., 7-j.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
21. Navoiy, A. (2013). *Sabʼai sayyor* (10 j., 7-j.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
22. Navoiy, A. (2013). *Saddi Iskandariy* (10 j., 8-j.). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
23. Navoiy, A. (2013). *Majolis un-nafois* (10 j., 9-jild). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
24. Qayumov, A. (1991). *Nodir sahifalar* (Monografiya). Toshkent: Fan.
25. Qayumov, A. (2008). *Asarlar: Saddi Iskandariy* (1-j., 2-k.). Toshkent: “Mumtoz soʻz” nashriyoti.
26. Qayumov, A. (2021). *Istiqlol davri oʻzbek navoiyshunosligi* (30 j., 1-j.). Toshkent: Tamaddun.
27. Rajabova, M., & Ibotova, M. (2025). Alisher Navoiy ijodida darvesh obrazi. *Ayniy vorislari*, 2,3(9), 27–32.
28. Ramazonov, N. (2019). Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti.
29. Sirojiddinov, Sh. (1997). Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari: qiyosiy tipologik-tekstologik tahlil. *Filol. fan. dok. diss.* Samarqand: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti.
30. Valixoʻjayev, B., & Vohidov, R. (1981). *Navoiy ijodi – ilhom manbayi*. Toshkent: Fan.

REFERENCES

1. Abdugafurov, A. (1995). *Lessons of the Great Five: Articles*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
2. Abduqodirov, A. (1998). *Sufism and the works of Alisher Navo'i (On the problem of Wahdat al-Wujud)*. DSc thes. philol. scien. Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Literature.
3. Attor, F. (1994). *Ilahinama*. Tashkent: Writer Publishing House.
4. Attor, F. (2006). *The Conference of the Birds*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
5. Attor, F. (2022). *Selected Works II: Ilahinama*. Tashkent: New Century Generation Publishing House.
6. Hayitmetov, A. (1963). *Issues of Navo'i's creative method*. Tashkent: Science Publishing House.
7. Hayitov, Sh. (2020). *The image of the perfect man in Alisher Navoi's prose (Based on the hagiographies of the great poet)*. Doctoral dissertation. Fergana: Fergana State University.
8. Ismoilov, I.A. (2019). *Comparative analysis of Alisher Navo'i's poem "Saddi Iskandari"*. PhD thes. philol. scien. Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
9. Ismoilov, I.A. (2022). *Genesis and poetics of Alisher Navoi's poem "Saddi Iskandari"*. DSc thes. philol. scien. Tashkent: Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
10. Jalolov, T. (1968). *Interpretations of the Khamsa*. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
11. Joraqulov, U. H. (2017). *The poetics of chronotope in Alisher Navo'i's Khamsa*. DSc thes. philol. scien. Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
12. Komilov, N. (2005). *Spring of Khizr*. Tashkent: Spirituality Publishing House.
13. Komilov, N. (2021). *Uzbek Navo'i studies of the independence period: Spring of Khizr* (Vols. 30, Vol. 7). Tashkent: Tamaddun Publishing House.
14. Muhiddinov, M. (1995). *The concept of man in the works of Alisher Navo'i and his predecessors (Based on the first epics of the Khamsas)*. DSc thes. philol. scien. Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Literature.
15. Navo'i, A. (1960). *Khamsa* (P.Shamsiyev, Ed.). Tashkent: Academy of Sciences of Uzbekistan Publishing House.
16. Navo'i, A. (2000). *Comparison of the two languages* (Vol. 16). Tashkent: Science Publishing House.
17. Navo'i, A. (2006). *Saddi Iskandari: With prose interpretation* (M.Hamidova, Ed.). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
18. Navo'i, A. (2013). *Farhod and Shirin* (Vols. 10, Vol. 6). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
19. Navo'i, A. (2013). *Wonder of the Righteous* (Vols. 10, Vol. 6). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
20. Navo'i, A. (2013). *Layli and Majnun* (Vols. 10, Vol. 7). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
21. Navo'i, A. (2013). *Assemblies of the Distinguished* (Vols. 10, Vol. 9). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
22. Navo'i, A. (2013). *Seven Planets* (Vols. 10, Vol. 7). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
23. Navo'i, A. (2013). *Saddi Iskandari* (Vols. 10, Vol. 8). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
24. Qayumov, A. (1991). *Rare pages (Monograph)*. Tashkent: Science Publishing House.
25. Qayumov, A. (2008). *Works: Saddi Iskandari* (Vol. 1, Book 2). Tashkent: Classical Word Publishing House.
26. Qayumov, A. (2021). *Uzbek Navo'i studies of the independence period* (Vol. 30, Vol. 1). Tashkent: Tamaddun Publishing House.

27. Rajabova, M., & Ibotova, M. (2025). The image of the dervish in the works of Alisher Navoi. *Ayni Successors*, 2,3(9), 27–32.
28. Ramazonov, N. (2019). *Interpretation of poverty and the image of the faqir in the works of Alisher Navo'i*. PhD thes. philol. scien. Tashkent: Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.
29. Sirojiddinov, Sh. (1997). *Persian-Tajik sources created in the 15th–19th centuries on the life and activity of Alisher Navo'i: Comparative typological-textological analysis*. DSc thes. philol. scien. Samarkand: Alisher Navo'i Samarkand State University.
30. Valikhojayev, B., & Vohidov, R. (1981). *Navo'i's works as a source of inspiration*. Tashkent: Science Publishing House.